

To'xtayeva Sevinch Shuxrat qizi

Termiz davlat universiteti talabasi

Omonov Arslonbek O'ralovich

Termiz davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti

Roman-german tillari kafedrası o'qituvchisi

**QO'SHMA SO'ZLAR VA ULARNING YASALISHI NEMIS TILI
MISOLIDA (DAS KOMPOSITUM)**

Annotatsiya. Ushbu maqolada nemis tilida qo'shma so'zlar (das Kompositum) va ularning maxsus turi bo'lgan Zusammenbildung hodisasi tahlil qilinadi. Qo'shma so'zlarning kelib chiqishi, tuzilish mexanizmlari hamda morfologik vositalari (fugen-s, unli tushishi, ko'plik va genitiv qo'shimchalari) izohlanadi. Shuningdek, qo'shma so'zlarning til tizimidagi o'rni, kommunikativ ahamiyati hamda boshqa tillar bilan qiyosiy jihatlari yoritilgan. Maqolada nemis tilidagi qo'shma so'zlarning fonetik va grammatik yaxlitligi, semantik aniqligi va lug'at boyligini kengaytirishdagi roli tahliliy asosda ko'rib chiqiladi. Natijada, Zusammenbildung nemis tilining eng samarali va ijodkor so'z yasash usullaridan biri ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Zusammenbildung, das Kompositum, qo'shma so'zlar, nemis tili, fugen-s, derivatsiya, kompozitsiya, morfologiya, so'z yasash, leksik birlik, semantika

Tokhtayeva Sevinch Shukhrat qizi

Student of Termez State University

Omonov Arslonbek Oralovich

Teacher of the Department of Romance-Germanic Languages, Faculty of

Foreign Philology, Termez State University

COMPONENT WORDS AND THEIR FORMATION IN THE EXAMPLE OF THE GERMAN LANGUAGE (DAS KOMPOSITUM)

Abstract. This article analyzes compound words in the German language (das Kompositum) and their special type known as Zusammenbildung. The origin of compounds, their structural mechanisms, as well as morphological devices (such as fügen-s, vowel reduction, plural and genitive suffixes) are explained. In addition, the role of compound words in the language system, their communicative significance, and their comparative aspects with other languages are highlighted. The article examines the phonetic and grammatical integrity of German compounds, their semantic precision, and their role in expanding the vocabulary. As a result, Zusammenbildung is emphasized as one of the most productive and creative word-formation methods in the German language.

Keywords: Zusammenbildung, das Kompositum, compound words, German language, fügen-s, derivation, composition, morphology, word formation, lexical unit, semantics

Tilshunoslikning deyarli barcha sohalarida yangi tadqiqotlar olib borildi va fanga yangi atamalar kiritila boshlandi. Shulardan biri – Zusammenbildung atamasi bo‘lib, u 1965-yilda tilshunos olimlar W. Henzen va H. Pauls tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Zusammenbildung G‘arbiy german tillarida nisbatan mahsuldor so‘z yasaliş turi sifatida qaraladi. Bu jarayon so‘z hosil qilishning samarali usullaridan biri bo‘lib, kompozitsiya (Komposition) va hosila (Derivation) o‘rtasida joylashadi.

Zusammenbildung – yangi so‘z birligi bo‘lib, u dastlab sintaktik bog‘lanishga asoslanadi, biroq so‘z birikmasi darajasida emas, balki mustaqil leksik birlik sifatida shakllanadi. Masalan:

Frühaufsteher – “erta uyg‘onuvchi” (früh aufstehen birikmasidan),

Gesetzgebung – “qonun chiqarish” (Gesetze geben ifodasidan),

Augenfällig – “ko‘zni qamashtiruvchi” (in die Augen fallen ifodasidan).

Qo‘shma so‘zlar nemis tilida juda muhim o‘rin tutadi. Odamlar tilni faqat yodlab emas, balki unda ijodkor bo‘lib foydalanishni o‘rganadilar. So‘z yasash esa yangi so‘zlarni yaratishda asosiy vosita hisoblanadi. Qo‘shma so‘zlar ot, sifat, ravish va qisman fe‘l turkumida keng qo‘llanadi. Nemis tilida ular yozilishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: qo‘shib yoziladigan qo‘shma so‘zlar (Autounfallbericht – avtohalokat haqida hisobot), ajratib yoziladigan qo‘shma so‘zlar (asosan ajratiladigan fe‘llarda: aufstehen – er steht früh auf).

Yangi hosil bo‘lgan so‘z odatda biror belgini yoki xususiyatni bildiradi, aniqlovchi qism esa asosiy so‘zni batafsil tushuntiradi. So‘zning jinsi (rod) har doim oxirgi komponent bilan belgilanadi. Masalan, **der** Tisch + **das** Tuch = **das** Tischtuch (stol + mato = dasturxon).

So‘z yasash jarayonida qo‘shma so‘zlar turli fonetik va morfologik vositalar orqali hosil qilinadi:

- ✓ fügen-s yordamida: Gebirgsdorf (tog‘li qishloq), Zeitungspapier (gazeta qog‘ozi);
- ✓ unlining tushishi bilan: Kirschbaum (gilos daraxti);
- ✓ genitiv yoki ko‘plik qo‘shimchalari bilan: Friedenstaube (tinchlik kaptari), Hühnerei (tovuq tuxumi).

Shu o‘rinda shuni ta’kidlash kerakki, nemis tilidagi qo‘shma so‘zlar faqat ikki qismdan iborat bo‘lishi shart emas. Ular uch, to‘rt, hatto undan ortiq komponentlardan ham tuzilishi mumkin. Masalan: *Donaudampfschiffahrtsgesellschaftskapitän* – “Dunaydagi bug‘ kemasi kompaniyasi kapitan”, *Krankenhausverwaltungssystem* – “kasalxona boshqaruv tizimi”, *Lebensmittelgeschäftsinhaber* – “oziq-ovqat do‘koni egasi”.

Bu kabi misollar nemis tilining so‘z yasash imkoniyatlari qanchalik keng ekanini ko‘rsatadi.

Qo'shma so'zlar faqat grammatik jihatdan emas, balki kommunikativ nuqtayi nazardan ham juda muhim. Ular:

1. Tilning ixchamligini ta'minlaydi. Bir nechta so'z bilan ifodalash mumkin bo'lgan ma'no qisqa bir so'zda jamlanadi (Krankenhausverwaltungssystem o'rniga butun jumla aytish mumkin edi) [3,435].

2. Aniqlik beradi. Qo'shma so'zlar narsaning xususiyatini yanada aniq ko'rsatadi (Strohhut – somondan qilingan shlyapa).

3. Ijodkorlikni kuchaytiradi. Nemis tilida istalgan yangi tushunchani ifodalash uchun qo'shma so'z yasash imkoniyati mavjud.

Qo'shma so'z yasash jarayoni boshqa tillarda ham mavjud, masalan, ingliz tilida (blackboard, football), o'zbek tilida (temiryo'l, oshpaz). Ammo nemis tilidagi qo'shma so'zlarning o'ziga xosligi shundaki, ular cheksiz darajada uzun va murakkab bo'lishi mumkin. Bu jihati bilan nemis tili boshqa tillardan keskin ajralib turadi.

Zusammenbildung nemis tilining eng samarali va mahsuldor so'z yasash usullaridan biridir. Qo'shma so'zlar fonetik va grammatik jihatdan yaxlit bo'lib, sodda so'z kabi ishlatiladi. Ular tilning so'z boyligini kengaytiradi, yangi tushunchalarni ifodalash imkonini beradi va tilning ijodkorlik salohiyatini oshiradi. Shu bois qo'shma so'zlar nemis tilining nafaqat leksik, balki grammatik tizimida ham alohida o'rin egallaydi.

Xulosa qilib aytganda, nemis tilidagi qo'shma so'zlar (Zusammenbildung) til tizimining eng mahsuldor va ijodiy unsurlaridan biri hisoblanadi. Ular yordamida yangi tushunchalar, aniq ifodalar va murakkab terminlar hosil qilinadi. Qo'shma so'zlarning o'ziga xosligi shundaki, ular bir nechta so'zlarni yagona leksik birlik sifatida birlashtiradi, semantik jihatdan yaxlit bo'ladi va grammatik jihatdan sodda so'zdek ishlatiladi. Amaliy jihatdan, qo'shma so'zlar kundalik nutqda, ilmiy matnlarda, texnikada, qonunchilik va ma'muriy til uslubida juda

keng qo‘llanadi. Shuningdek, ular o‘zining murakkabligi va uzunligi bilan boshqa tillardan keskin ajralib turadi. Bu jihati bilan nemis tili so‘z yasash imkoniyatlari eng kuchli tillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qilicheva, Shahlo. (2025). O‘ZBEK VA NEMIS TILLARIDA QO‘SHMA SO‘ZLARNING MORFOLOGIK, STRUKTURAL YASALISHI. 10.47390/978-9910-09-176-6/rkm-09
2. Karshieva, B. F. (2022). Methodology and pedagogical practice-test result of organization of pedagogical training. *Экономика и социум*, (12-1 (103)), 135-138.
3. Karshiyeva, B. F. (2024). OPPORTUNITIES FOR FORMING PRACTICAL COMPETENCES IN STUDENTS IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE. *Экономика и социум*, (12-2 (127)), 434-436.
4. A.Iskos, A. Lenkova, “Deutsche Lexikologie”, Leningrad-1970. 915.
5. Duden „Deutsches Universal Wörterbuch“ Berlin. 2015, 8.Auflage